O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(1-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 507-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'qituvchilar faoliyatida bir qator metodlarni o’zlashtirishlarini nazarda tutadi, jumladan: 1) yo'naltiruvchi-boshlang'ich sinflar uchun raqamli texnologiyalardan (RT) foydalangan holda o'quv jarayonini qurish uchun zarurat va maqsadga muvofiqlik holatini yaratish uchun pedagogik shart-sharoitlar va omillarni belgilaydi; 2) dizayn-boshlang'ich sinf o'quvchilarini RTdan foydalangan holda o'qitish jarayonini tashkil qilish yo'nalishlari va usullarini tanlashni o'z ichiga oladi; 3) faoliyatga asoslangan - oldingi bosqichlarda ishlab chiqilganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini RTdan foydalangan holda o'qitish jarayonini amalga oshirishni va bu jarayonni monitoring qilishni o'z ichiga oladi; 4) analitik - boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun RTni o'quv jarayoniga integratsiya qilish samaradorligini baholashni va RTni qo'llash orqali bevosita olingan natijalarni aniqlashni aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining RTga asoslangan kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni uch bosqichni o'z ichiga oladi deb aytishimiz mumkin:

1) Kasbga yo'naltirish - ta'lim jarayonidagi muammolarini hal qilish uchun RTdan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunga boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati, masalan, mashg’ulot jarayonida ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlash, o'quv yuklamalarini hisoblash va boshqalar asosida mavjud RTni o'zlashtirish orqali erishiladi;

2) Kasbiy va metodologik - RTdan foydalangan holda didaktik metodlardan foydalanish va shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish uchun RTdan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi;

3) Kasbiy va tashkiliy - RTdan foydalangan holda turli xil mashg’ulotlarni tashkil etish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini loyihalash ko'nikmalarini egallashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasida Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni
2. S. Axmedova Boshlang'ich ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida matematika darsini tashkil etish. International Journal of Science and Technology 2025 2-son
3. J. Karomatillo Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni qo`llash NEW RENAISSANCE elektron jurnal 2023 9-SON
4. Abdurasulovna, Xusayinova Go‘zal. "raqamli ta’limdan texnologiya darslarida foydalanish samaradorligi." ijodkor o'qituvchi 3.30 (2023): 88-94
5. Chen, C. M. Va Huang, S. H. (2012). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishiga raqamli o‘yinlarni kiritishning motivatsiya va muvaffaqiyatga ta’siri*. Ta’lim texnologiyasini tadqiq qilish va rivojlantirish, 60 (1), 143-160.

O‘SMIR SHAXSIDA MUAMMODAN QOCHISH STRATEGIYASI PAYDO BO‘LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Sharafitdinov Abdulla XXX
O‘zMU Jizzax filiali dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smir shaxsida muammodan qochish strategiyasining shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil qilingan. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, mazkur davrda o‘z-o‘zini anglash, mustaqillikka intilish, tengdoshlar bilan munosabatlar, emotsional holat va o‘z-o‘zini baholash jarayonlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. Maqolada muammodan qochish strategiyasining mazmuni, uning yuzaga kelish sabablari hamda o‘smir shaxsining psixologik rivojlanishiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, shaxs, muammo, muammodan qochish, koping strategiyasi, stress, xavotir, o‘z-o‘zini baholash, o‘ziga ishonch, emotsional holat, oilaviy munosabatlar, tengdoshlar, psixologik omillar, moslashuv.

Kirish. Bugungi kunda o‘smirlar psixologik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish psixologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘smirlik davri inson hayotida bolalikdan kattalik davriga o‘tish bosqichi sifatida namoyon bo‘lib, mazkur davrda shaxsning biologik, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim o‘zgarishlar yuz beradi. O‘smir o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglashga, mustaqil qarorlar qabul qilishga va atrofidagi insonlarning unga bo‘lgan munosabatini baholashga intiladi. Shu sababli bu davrda turli xil muammoli vaziyatlarga munosabat ham o‘ziga xos tarzda shakllanadi.

Psixologik adabiyotlarda insonning stress va muammoli vaziyatlarga munosabatini ifodalovchi xatti-harakatlar majmui “koping strategiyalari” tushunchasi bilan izohlanadi. R. Lazarus va S. Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stress va koping nazariyasida insonning stressli vaziyatni qanday baholashi uning keyingi xatti-harakatiga bevosita ta’sir qilishi ta’kidlanadi [1; 141-bet]. Shaxs vaziyatni o‘z imkoniyatlari doirasida nazorat qilish mumkin deb hisoblasa, muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan faol strategiyalardan foydalanishi mumkin. Aksincha, vaziyatni haddan tashqari xavfli yoki nazorat qilib bo‘lmaydigan deb baholash qochish, chekinish yoki muammoni inkor etish kabi strategiyalarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

O‘smirlik davrida muammolardan qochishning shakllanishi alohida psixologik ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davrda shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va muammoli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Agar o‘smir qiyinchiliklarga duch kelganda muntazam ravishda ulardan qochishni tanlasa, bu xatti-harakat keyinchalik barqaror xulq-atvor strategiyasiga aylanishi mumkin.

O‘smirlik davri shaxsning o‘zini anglash jarayoni kuchayadigan bosqichlardan biridir. E. Eriksonning fikricha, o‘smirlik davrida shaxs oldida o‘z identikligini shakllantirish bilan bog‘liq muhim psixologik vazifa turadi [2; 128-bet]. O‘smir “Men kimman?”, “Kelajakda qanday inson bo‘laman?”, “Mening jamiyatdagi o‘rnim qanday?” kabi savollarga javob izlay boshlaydi.

Mazkur davrda o‘smirning kattalar bilan munosabatlari ham o‘zgaradi. U avvalgidek faqat kattalarning ko‘rsatmalarini bajaruvchi emas, balki o‘z fikri, qarashlari va ehtiyojlariga ega mustaqil shaxs sifatida qabul qilinishni xohlaydi. Shu sababli ota-onalar yoki pedagoglarning haddan tashqari nazorati o‘smirda norozilik, qarshilik yoki ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Asosiy qism: strategiyasi shaxsning muammoli yoki stressli vaziyatni bevosita hal qilish o‘rniga undan jismoniy, emotsional yoki fikriy jihatdan uzoqlashishga intilishini anglatadi. Bunda inson muammoni kechiktirishi, vaziyatni inkor qilishi, boshqa faoliyat bilan o‘zini chalg‘itishi yoki muammoli vaziyat bilan bog‘liq muloqotdan qochishi mumkin.

C. S. Carver va uning hamkasblari koping xatti-harakatlarini o‘rganishda muammoni faol hal qilish bilan bir qatorda, vaziyatdan qochishga yo‘naltirilgan reaksiyalar ham mavjudligini ko‘rsatganlar [3; 270-bet]. Bunday strategiyalarning samaradorligi vaziyatning xususiyatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Muammodan qochishning o‘zi har qanday sharoitda salbiy hodisa hisoblanmaydi. Masalan, kuchli emotsional zo‘riqish vaqtida qisqa muddatli tanaffus olish, vaziyatni tinchlanib qayta baholash inson uchun foydali bo‘lishi mumkin. Biroq qochish muammoni hal qilishning doimiy va asosiy usuliga aylanganda, uning salbiy oqibatlari yuzaga chiqishi ehtimoli ortadi.

O‘smirlar orasida muammodan qochish quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- ✓ muammoli vaziyatni muhokama qilishdan bosh tortish;
- ✓ topshiriq yoki mas’uliyatni bajarishni doimiy kechiktirish;
- ✓ tanqid yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqib, faoliyatdan voz kechish;
- ✓ ota-ona yoki pedagog bilan muammoli masalalarni muhokama qilmaslik;
- ✓ tengdoshlar bilan nizodan keyin ijtimoiy aloqalarni cheklash;
- ✓ muammoli vaziyatni inkor etish;
- ✓ muammoni hal qilish o‘rniga chalg‘ituvchi faoliyatga haddan tashqari berilish.

Muammodan qochish strategiyasining shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar. O‘smir shaxsida muammodan qochish strategiyasining shakllanishida xavotir muhim omillardan biri hisoblanadi. Xavotir darajasi yuqori bo‘lgan o‘smir muammoli vaziyatning salbiy oqibatlarini haddan tashqari kuchli tasavvur qilishi mumkin. Masalan, imtihonda muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo‘rqayotgan o‘smir tayyorgarlik ko‘rish o‘rniga imtihon haqida o‘ylamaslikka, darsdan qochishga yoki vazifani keyinga qoldirishga urinishi mumkin. Bunday xatti-harakat vaqtincha emotsional yengillik bersa-da, asosiy muammo saqlanib qoladi.

R. Lazarus va S. Folkman stressli vaziyatning shaxs tomonidan baholanishi uning keyingi reaksiyasini belgilashini ta’kidlaydilar [1; 31-bet]. Demak, o‘smirning muammoni qanday qabul qilishi uning undan qochishi yoki uni hal qilishga kirishishiga ta’sir qiluvchi muhim mexanizmdir.

O‘z-o‘zini baholash. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini baholash jarayoni faol rivojlanadi. O‘smir o‘zining tashqi ko‘rinishi, intellektual qobiliyatlari, tengdoshlari orasidagi mavqei va shaxsiy imkoniyatlarini baholay boshlaydi.

Agar o‘smir o‘z imkoniyatlarini yetarli darajada baholamasa, muammoli vaziyat oldida o‘zini ojiz his qilishi mumkin. A. Bandura o‘z-o‘ziga ishonch va shaxsning muayyan vazifani bajarishga qodirligiga bo‘lgan ishonchi xatti-harakatlarni boshqarishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [1; 3-bet].

O‘ziga ishonchsizlik. O‘smirning o‘z kuchiga ishonmasligi ham muammodan qochishning muhim psixologik omilidir. O‘ziga ishongan o‘smir qiyinchilikni tajriba sifatida qabul qilib, turli yechimlarni sinab ko‘rishi mumkin. O‘ziga ishonchi past bo‘lgan o‘smir esa xato qilishdan qo‘rqishi sababli muammoni umuman hal qilmaslikni afzal ko‘rishi mumkin.

A. Bandura tomonidan ilgari surilgan o‘z-o‘ziga samaradorlik konsepsiyasida shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi uning faoliyatga kirishishi, qat’iyatliligi va qiyinchiliklarga munosabatiga ta’sir qilishi ko‘rsatiladi [3; 37-bet].

Stressga chidamlilik insonning qiyin vaziyatlarda o‘z faoliyatini saqlab qolishi va emotsiyalarini boshqarish qobiliyatidir. O‘smirlik davrida ushbu qobiliyat hali rivojlanish bosqichida bo‘ladi. B. E. Compas va hamkorlarining tadqiqotlarida bolalik va o‘smirlik davrida stressga moslashish jarayonida koping strategiyalarining muhim o‘rin tutishi ko‘rsatilgan [2; 89-bet]. O‘smir muammoli vaziyatda o‘z emotsiyalarini boshqara olmasa, vaziyatdan qochishni vaqtinchalik yechim sifatida tanlashi mumkin.

Muammodan qochish strategiyasining shakllanishini shartli ravishda bir necha bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda o‘smir muammoli vaziyatga duch keladi. Ikkinchi bosqichda u vaziyatni baholaydi. Agar vaziyat juda murakkab yoki xavfli deb qabul qilinsa, emotsional zo‘riqish paydo bo‘ladi. Uchinchi bosqichda o‘smir muammoni hal qilish uchun o‘zida yetarli resurs mavjud emasligini his qilishi mumkin. To‘rtinchi bosqichda esa qochish xatti-harakati yuzaga keladi. Qochishdan keyin emotsional zo‘riqish vaqtincha kamayishi mumkin. Ana shu vaqtinchalik yengillik qochish strategiyasini mustahkamlovchi omilga aylanishi mumkin. Keyingi safar shunga o‘xshash vaziyat yuzaga kelganda o‘smir yana qochishni tanlaydi. Muammodan qochishning asosiy xususiyati shundaki, u ko‘pincha muammoning o‘zini bartaraf etmaydi. Aksincha, muammo keyinchalik yanada murakkablashishi mumkin.

O‘smirlarda muammodan qochish strategiyasining salbiy ko‘rinishlarini kamaytirish uchun, avvalo, ularda muammoni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim. Birinchidan, o‘smirga muammoni aniq ifodalashni o‘rgatish kerak. Ko‘pincha muammo umumiy va noaniq tarzda qabul qilinadi. Masalan, “Maktabda hammasi yomon” degan fikr o‘rniga “Men matematika fanidan ayrim mavzularni tushunmayapman” tarzida muammoni konkretlashtirish uning yechimini topishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, muammoning bir nechta yechimlarini izlash muhim. O‘smirga faqat bitta yechim mavjud emasligini tushuntirish kerak. Har bir muammo uchun bir nechta muqobil yo‘l bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, ijtimoiy yordamdan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. O‘smir muammoga duch kelganda ota-ona, pedagog, maktab psixologi yoki ishonchli tengdoshidan yordam so‘rashi mumkinligini bilishi kerak. To‘rtinchidan, emotsional o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Kuchli hissiy holatda qabul qilingan

qarorlar har doim ham samarali bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli o‘smirga avval tinchlanish, keyin vaziyatni tahlil qilish va qaror qabul qilishni o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Xulosa.O‘smirda muammodan qochish strategiyasi shakllanganida unga nisbatan faqat tanqidiy munosabatda bo‘lish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Avvalo, qochish xulqining ortida qanday ehtiyoj yoki qo‘rquv mavjudligini aniqlash zarur. Maktab psixologi o‘smir bilan individual suhbatlar, psixologik treninglar va muammoli vaziyatlarni modellashtirish orqali ishlashi mumkin. O‘smirga “Sen buni uddalay olmaysan” kabi salbiy baholar berish o‘rniga “Keling, bu muammoni birgalikda qanday hal qilish mumkinligini ko‘rib chiqamiz” kabi qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lazarus R. S., Folkman S. *Stress, Appraisal, and Coping*. — New York: Springer, 1984. — 444 p.
2. Erikson E. H. *Identity: Youth and Crisis*. — New York: W. W. Norton & Company, 1968. — 336 p.
3. Carver C. S., Scheier M. F., Weintraub J. K. Assessing coping strategies: A theoretically based approach // *Journal of Personality and Social Psychology*. — 1989. — Vol. 56. — No. 2. — P. 267–283.

OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA DUCHOR BO‘LGAN BOLALAR HAMDA O‘SMIRLARGA PSIXOSATSIAL YORDAM KO‘RSATISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
“Psixologiya” kafedra dotsenti
Pedagogika fanlari doctori
(DSc)
Rashidova Gulnoza G‘ulomovna
O‘zMU Jizzax filiali, Psixologiya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi ***Zokirova Sevinch Sherali qizi***
rashidovagulnoza1989@gmail.com
telefon raqam: 973258000

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar va o‘smirlarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikning mazmun-mohiyati, uning bola shaxsining psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri hamda zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalarga psixosatsial yordam ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Oilaviy zo‘ravonlikning jismoniy, psixologik, jinsiy va iqtisodiy shakllari hamda beparvolik ko‘rinishlari tahlil qilinib, bolalarning xavfsizligini ta’minlash emotsiaonal qo‘llab-quvvatlash, individual va guruhiy psixologik yordam, oila bilan ishlash, ta’lim muassasalari va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, bolalar va o‘smirlarga psixosatsial yordam ko‘rsatishda yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish zarurligi asoslab berilgan.